TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI DEPOZITLAR VA ULARNING HISOBI

AJ “Asakabank”Buxoro BXM boshqaruvchisi
Po’latov Shoxrux Salimovich

Annotatsiya: *Mazkur tezis tijorat banklarida raqamli depozitlarni samarali boshqarish, hisob yuritish jarayonlarini avtomatlashtirish va to‘liq raqamlashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berishga xizmat qiladi. Xususan, depozitlarni raqamli platformalarda segmentlash va hisobini optimallashtirish, shuningdek, ichki audit va byudjetlashtirishni elektron mexanizmlar orqali joriy etish kabi yechimlar ilgari surilgan. Tadqiqot natijalari moliyaviy barqarorlikni ta’minlash, mijozlar bilan ishlash samaradorligini oshirish va strategik boshqaruvni kuchaytirishga qaratilgan*

Kalit so’zlar: *tijorat banklari, raqamli depozit, depozitlar hisobi, KPI, byudjetlashtirish, raqamli boshqaruv, bank resurslari tahlili, avtomatlashtirish*

Kirish

O‘zbekiston iqtisodiyotida bank tizimi real sektorni moliyalashtirishning asosiy manbalaridan biri sifatida alohida ahamiyatga ega. Bank aktivlaridan samarali foydalanish nafaqat tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi, balki butun iqtisodiyotning investitsiya salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, tijorat banklarida raqamli depozitlarni joriy etish va ularning hisobini samarali tashkil etish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, bank-moliya tizimini isloh etish hamda zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida yangi moliyaviy mahsulotlarni amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga

oshirilmoqda. Raqamli depozitlar mijozlarga qulay, tezkor va shaffof xizmat ko‘rsatishni ta’minlab, bank resurslarining likvidliligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Raqamli depozitlar hajmi va ularning tarkibi yildan-yilga kengayib bormoqda. Mijozlarning onlayn omonatlari, muddatli depozitlar, talab qilib olinadigan raqamli hisobvaraqlar hamda boshqa turdagi depozit mahsulotlari ko‘paygani sari ularni boshqarish xarajatlari ham oshmoqda. Xizmat turlarining kengayishi natijasida operatsion va boshqaruv xarajatlari ko‘payib, depozitlardan foydalanish samaradorligini pasaytirishi mumkin. Shu bois raqamli depozitlar samaradorligini baholashda – depozit rentabelligi, foyda bilan ta’minlangan depozitlar ulushi, depozitlar aylanish tezligi, qisqa muddatli likvid depozitlar ulushi kabi indikatorlarni turli faoliyat turlari bo‘yicha chuqur tahlil qilish zarur.

Mavzuning dolzarbligi

Tijorat banklarida raqamli depozitlarni boshqarish va ularning samarali hisobini yuritish tizimi bank faoliyatining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda strategik ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, raqamli depozitlardan foydalanish samaradorligini to‘g‘ri baholash, ularning tarkibi va tuzilmasini chuqur tahlil qilish orqali daromadlilikni oshirish va risklarni kamaytirish mumkin.

Bank depozitlari – tijorat banklarining asosiy jalb qilingan mablag‘lari bo‘lib, ular bank faoliyatining moliyaviy va operatsion xarajatlari bilan uzviy bog‘liqdir. Depozitlar bilan bog‘liq xarajatlar tarkibiga mijozlarga to‘lanadigan foiz to‘lovlari, depozitlarni jalb qilish va boshqarish bilan bog‘liq operatsion xarajatlar, axborot texnologiyalari uchun xizmat haqlari, filial va onlayn platformalarni yuritish xarajatlari, shuningdek, mijozlarga xizmat ko‘rsatish va hujjatlashtirish bilan bog‘liq ma’muriy sarflar kiradi. Depozitlar bo‘yicha foiz

to‘lovlari bank resurslarining qiymatini belgilaydi va bu bevosita bankning foiz marjasi (NIM) hamda depozitlar rentabelligiga ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, axborot texnologiyalariga qilingan xarajatlar raqamli omonat xizmatlarining sifatini oshirishi, mijozlar sonini ko‘paytirishi va natijada depozitlar aylanish tezligini tezlashtirishi mumkin.

Ilmiy nuqtai nazardan, tijorat banklarida raqamli depozitlarni shakllantirish va ularning hisobini yuritish bank aktivlaridan foydalanish samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biridir. Shu bois, “Bank aktivlarining samarali foydalanish ko‘rsatkichlar tahlilini takomillashtirish” doirasida depozitlar quyidagi jihatlardan baholanadi:

- Depozitlar tuzilmasi – raqamli depozitlarning turlari, ularning bank resurslaridagi ulushi va shakllanish manbalari aniqlanadi.
- Depozitlarning rentabellikka ta’siri – depozitlar hajmi va sifati ROA hamda NIM kabi moliyaviy ko‘rsatkichlarga ta’siri bo‘yicha tahlil qilinadi.
- Depozitlarni boshqarish imkoniyatlari – depozit portfelini diversifikatsiya qilish, muddat va foiz stavkalari bo‘yicha optimal yechimlar ishlab chiqiladi.
- Raqamli texnologiyalar roli – mobil ilovalar, internet-banking va sun’iy intellekt asosidagi yechimlar yordamida depozitlar oqimini ko‘paytirish va ularning aylanish tezligini oshirish imkoniyatlari baholanadi.

Ushbu tadqiqot obyekti — O‘zbekiston Respublikasidagi tijorat banklarining moliyaviy-xo‘jalik faoliyati jarayonida shakllanadigan raqamli depozitlar tizimi va ularni boshqarish mexanizmlaridir.

Tadqiqot predmetini esa tijorat banklarida raqamli depozitlardan samarali foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy usullari tashkil etadi. Bunda zamonaviy tahlil va baholash instrumentlari – depozit rentabelligi ko‘rsatkichlari, ROA, ROE, NIM, depozitlar aylanish tezligi, Risk-Adjusted Performance Metrics,

ichki audit hamda raqamli monitoring tizimlari asosiy ilmiy yondashuv sifatida qo‘llaniladi.

Mazkur tezisda raqamli depozitlar tarkibini, ularning tijorat banklari daromadliligi va moliyaviy barqarorligiga ta’sirini tahlil qilish, shuningdek, raqamli depozitlardan samarali foydalanishni nazorat qilish orqali bank faoliyatida qanday moliyaviy va boshqaruviy afzalliklarga erishish mumkinligi o‘rganiladi.

1-jadval

Tijorat banklari raqamli depozitlarining toifalari va tavsifi

Depozit toifasi	**Tavsifi**	**Daromad-lilik**	**Likvidlik**	**Ilmiy manbalarda qayd etilgan jihatlar**
Talab qilib olinadigan depozitlar (Demand Deposits)	Mijoz xohlagan vaqtda yechib olishi mumkin bo‘lgan depozitlar; asosan to‘lovlar va tranzaksiyalar uchun qo‘llanadi	Past	Yuqori	Mishkin (2021) – likvidlikning asosiy manbai sifatida; Rose & Hudgins (2013) – tranzaksion vosita sifatida
Muddatli depozitlar (Time Deposits)	Belgilangan muddat davomida saqlanadigan va nisbatan yuqori	Yuqori	Past	Saunders & Cornett – risk va daromadlilik muvozanati; Mahalliy olimlar

	foiz to‘lovlarini ta’minlaydigan depozitlar			– barqaror resurs manbai sifatida
Jamg‘arma depozitlari (Savings Deposits)	Aholining jamg‘armalari sifatida shakllanadigan, odatda raqamli platformalar orqali boshqariladigan depozitlar	O‘rtacha	O‘rtacha	Rose & Hudgins – eng ommaviy depozit turi; Abdullayev (2020) – aholining moliyaviy faolligini oshiradi
Valyuta depozitlari (Foreign Currency Deposits)	Chet el valyutasida saqlanadigan depozitlar, qayta baholash (revaluation) riskiga ega	Foiz darajasi bozor sharoitiga bog‘liq	O‘rtacha	Mishkin – valyuta riskini boshqarish zarur; KPMG (2023) – qayta baholash aktivlar samaradorligiga ta’sir qiladi

Manba:Muallif tomonidan tadqiqotlar asosida tuzilgan

Xulosa

So‘nggi yillarda bank tizimida raqamlashtirish jarayonlari keng rivojlanmoqda. Ularning eng muhim ko‘rinishlaridan biri raqamli depozit hisoblanadi. Raqamli depozitlar – bu bank mijozlari uchun internet-banking yoki mobil ilova orqali onlayn tarzda ochiladigan va boshqariladigan omonatlar bo‘lib, ular an’anaviy depozitlarga nisbatan qulaylik, tezkorlik va shaffoflikni

ta’minlaydi. Tijorat banklari amaliyotida raqamli depozitlar asosan mijozning bankka kelmasdan turib omonat ochishi, depozit shartlarini ko‘rishi va real vaqt rejimida hisoblangan foizlarni kuzatishi imkoniyatini beradi. Bunda mijoz identifikatsiyasi masofadan turib amalga oshiriladi, elektron imzo yoki maxsus dasturiy ta’minot vositalari qo‘llaniladi.

AJ “Asakabank” misolida olib qaraganda, raqamli depozitlar bankning mobil ilovasi orqali ochiladi. Mijoz depozit turini, muddati va summasini mustaqil tanlaydi. Foiz daromadlari bankning avtomatlashtirilgan tizimi orqali kunlik hisoblanadi va oy oxirida depozit hisobiga qo‘shiladi. Agar mijoz depozitni muddatidan oldin yechib olsa, tizim avtomatik ravishda qayta hisob-kitobni amalga oshiradi. Shu bilan birga, bank buxgalteriya bo‘limida barcha depozit operatsiyalari markazlashtirilgan tarzda hisobga olinadi va konsolidatsiyalangan hisobotlar muntazam ravishda shakllantiriladi. Raqamli depozitlarning afzalliklari ko‘p: ular mijozlarga qulaylik va tezkorlik yaratadi, bank operatsiyalarida shaffoflikni oshiradi, filiallarga bo‘lgan yukni kamaytiradi va yangi mijozlarni jalb qilishga xizmat qiladi. Biroq, bu jarayon bilan bir qatorda, axborot xavfsizligini ta’minlash, kiberhujumlar xavfini kamaytirish va mijozlarning raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini oshirish kabi muammolar ham mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Omonov, A. A., Koraliev, T. M. *Dengi i banki*. — Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2018. — 412 p.

2. Azizov, U., Karaliev, T., Bobokulov, T. *Bankovskoe delo: Uchebnoe posobie*. — Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2018. — 356 p.

3. Tashxodjaev, M. *Korporativ boshqaruvni takomillashtirish*. — Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2014. — 298 p.

4. Jumayev, N. H. *Bank ishi va moliya bozorlari*. — Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2020. — 384 p.

5. Abduraxmonov, Q. X. *Iqtisodiyot nazariyasi*. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. — 520 p.

6. Mishkin, F. S. *The Economics of Money, Banking and Financial Markets*. 12th ed. — New York: Pearson, 2019. — 720 p.

7. Rose, P. S., Hudgins, S. C. *Bank Management & Financial Services*. 10th ed. — New York: McGraw-Hill Education, 2020. — 832 p.

8. Heffernan, S. *Modern Banking*. 2nd ed. — Chichester: Wiley, 2005. — 750 p.

9. Koch, T. W., MacDonald, S. S. *Bank Management*. 8th ed. — Mason: South-Western Cengage Learning, 2014. — 865 p.

10. Choudhry, M. *The Principles of Banking*. 2nd ed. — Singapore: Wiley, 2022. — 912 p.